



## **Freshline® DM ikki rejimli tunnelli muzlatgich uskunasasi**

**Individual tez muzlatilgan va individual tez muzlatilmagan mahsulotlarni tez va moslashuvchan muzlatish uchun**

Air Products kompaniyasining innovatsion Freshline DM tunnelli muzlatgich uskunasi moslashuvchanlikni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida bir mahsulotni qayta ishlashdan ikkinchisiga o'tish zarurati vaqtini birinchi o'ringa qo'yadi. Ushbu yangi muzlatgich uskunasi sizga tez va osonlik bilan bitta uskuna yordamida individual tez muzlatishdan (ITM) individual tez muzlatilmagan mahsulotlarga o'tish imkonini beradi.



## Umumiy texnik shartlar

Freshline DM tunnelli muzlatgich uskunasi uzunroq an'anaviy kriogen muzlatish uskunasi ichidagi qisqa ITM bo'limidan iborat modulli muzlatish tizimidir. Ba'zi hollarda, ITM tizimini mavjud kriogen tunnel muzlatgich apparatiga modernizatsiyalash mumkin.

Model raqami	Umumiy uzunlik (m)	Muzlatish uzunligi (m)	Tasma kengligi (m)	Umumiy kenglik (m)
720,6	8,1	6	0,72	1,705
1220,6	8,1	6	1,22	2,205
720,9	11,1	9	0,72	1,705
1220,9	11,1	9	1,22	2,205
720,12	14,1	12	0,72	1,705
1220,12	14,1	12	1,22	2,205

## Freshline® DM ikki rejimli tunnelli muzlatgich uskunasi sizga yordam beradi

- ITM va unday bo'lmagan mahsulotlar, masalan, baliq filesi yoki qadoqlangan mahsulotlar o'rtasida uskunani almashtirmasdan osongina almashish orqali moslashuvchanlikni oshirishga
- Doimiy yuqori sifatli ITM natijalariga erishishga
- Ishlab chiqarish quvvatini oshirishga
- Kapital xarajatlaringizni kamaytirishga
- Ishlab chiqarish muddatini uzaytirishga
- Samaradorlikni yo'qotmasdan o'tkazish imkoniyatini o'zgartirishga
- Zavodgingizda joyni tejashga
- Tozalash vaqtini qisqartirishga

## Innovatsion konstruksiya

Ikki rejimli tizim mahsulot birligini muzlatish xarajatlariga ta'sir qilmasdan, keng imkoniyatlar intervalida ishlash imkonini beradi. Muzlatgichning ishonchligi uning samaradorligini pasaytirmasdan kuniga 16 soatgacha ishlatish mumkinligini bildiradi.

Freshline DM tunnelli muzlatgich uskunasi ixcham konstruksiyasi shunday uzunlikdagi an'anaviy kriogen muzlatgichga nisbatan ishlab chiqarish quvvatini sezilarli darajada oshirishni ta'minlashi mumkin.

Muzlatgichning innovatsion konstruksiyasi uni tozalashni osonlashtirib, ish to'xtab qolish vaqtini va mehnat xarajatlarini tejashini ko'rish mumkin. Freshline DM tunnelli muzlatgich uskunasi eng yangi xalqaro gigiyena va xavfsizlik standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

## Qaysi mahsulotlarga ishlov berish mumkin?

- Dengiz mahsulotlari: krevetkalar, pishirilgan /xom/tozalangan/ qobig'ida, midiya, ustritsa, dengiz tarog'i, baliq filesi, sushi.
- Go'sht va parranda go'shti: pishirilgan va xom, kubik, bo'lak yoki somoncha shaklida to'g'ralgan.
- Mevalar: rezavorlar, uzum, olxo'ri, gilos, to'g'ralgan meva bo'laklari.
- Sabzavotlar: kubik yoki parra qilib to'g'ralgan qo'ziqorinlar, shirin makkajo'xori, loviya novdalari, petrushka kabi muzlatilgan o'tlar.
- Sut mahsulotlari/makaron: alohida makaron shakllari, tofu bo'laklari, motsarella.

## Air Products kompaniyasiga savol bering... va yanada ko'prog'ini kuting

O'zingizga qanday vazifalar qo'yganingizdan qat'i nazar: qadoqlash, sabzavot va mevalar, parranda go'shti, go'sht yoki boshqa mahsulotlarni sovutish yoki muzlatishingizdan qat'i nazar, Air Products kompaniyasining Freshline yechimlari sizga yuqori darajadagi toza gazlar va uskunalarni, xalqaro yetkazib berish imkoniyatlarini va eng muhimi, dunyoning istalgan nuqtasida muvaffaqiyatga erishishingizga yordam beradigan tengsiz tajriba va texnik yordamni taklif etadi.



## Qo'shimcha ma'lumot olish uchun biz bilan bog'laning:

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri  
"Air Products Central Asia Group" MCHJ  
Xalqaro Biznes Markazi (IBC)  
A blok, 3-qavat  
T: +998712051655  
uz@airproducts.com  
airproducts.uz



GENERATING A CLEANER FUTURE